

**FRANSUZ TILIDA “ISTAK” KATEGORIYASINI LEKSIK-SEMANTIK GURUHLARGA AJRATISHNING O'ZIGA XOS KOGNITIV XUSUSIYATLARI**

*J. Yakubov<sup>1</sup>*

*Annotatsiya:*

Ushbu maqola lingvistik iboralar ichida istak kategoriyasini o'rganib, istak va istaklarni bildiruvchi fe'llarning semantik ma'noda qanday muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Har bir til turli hodisalarni tasvirlash uchun boy sinonimlar qatorini taqdim etishini e'tirof etgan holda, tadqiqot istakni ma'lum bir leksik to'plam bilan chegaralab qo'yishdan ko'ra, unga keng tushuncha sifatida yondashadi. Maqolada istak semantikasiga oid turli lingvistik qarashlar ko'rib chiqiladi, ularning tillar bo'yicha sintaktik va pragmatik ko'rinishlari o'rganiladi, fransuz va o'zbek tillariga alohida e'tibor beriladi. Qiyosiy tahlil orqali tadqiqot istakni ifodalash uchun foydalaniladigan lingvistik tuzilmalarni aniqlaydi va fransuz tilidagi modal fe'llarning semantik jadvalini va ularning o'zbek tiliga tarjimalarini taqdim etadi.

*Kalit so'zlar:* istak semantikasi, turli hodisalar, tillar, kategoriyalar bo'yicha namoyon bo'lish.

*doi:* <https://doi.org/10.2024/swct2h11>

---

Istak tushunchasi so'zlovchining kommunikativ niyati asosida hosil bo'ladigan darak, so'roq va buyruq gaplar bilan bir lingvistik kategoriyani – gapning ifoda maqsadi kategoriyasini hosil qiladi. Ushbu semantik kategoriyani ifodalashda esa, tabiiyki, gap mazmunida xohish-istakni ifodalovchi fe'llar muhim o'rin tutadi.

Mazkur maqolada istak kategoriyasini biz keng ma'noda tushnamiz, chunki biz har bir til u yoki boshqa hodisani tasvirlash uchun ancha-muncha sinonimlarning soniga ega deb hisoblaymiz va chet tilini pragmatik maqsadlarda o'rganish uchun istakni faqat “istak, xohish” nomi bilan va uning sinonimik fe'lli va otli konstruktsiyalari bilan tenglashtirish mantiqsiz bo'lishi mumkin edi.

Istakni ifodalovchi fe'llar, bir tomondan, his qilish, sezish fe'llariga yaqin bo'lsa, ikkinchi tomondan, ular xohishni anglatuvchi fe'llarga yaqindir: istak qandaydir ichki ruhiyat talablarini his qilish, tushunib yetish, shuningdek ularni qondirishga intilish bilan bog'langan.

Istak lingvistik kategoriyasi bilan tilshunos olimlar doimo qiziqib kelgan, ushbu til ob'ektiga bo'lgan munosabat va e'tibor hozir ham susaygani yo'q. Mazkur semantik kategoriya haqida turli qarashlar mavjud. Masalan, L.M. Vasil'ev (1981, 49) ushbu kategoriya to'g'risida quyidagicha yozadi: « Intilish istakni amalga oshirish jarayonidagi harakatdir. Istakni ifodalovchi fe'llar his-tuyg'uni vujudga keltiruvchi fe'llar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular odamga yaqinlikni va unga bo'lgan mehr-muhabbatga moyillikni anglatib keladi».

«Istak eng avvalo so'zlovchining harakatiga yoki holatiga qaratilgan bo'lib, gapda u o'zining shaxsiy(xususiy) talab, orzu-umid va niyat ma'nolarini ifodalaydi»( Kordi 1990, 174).

E. Kordi istak ma'nosini fransuz tili materialida tahlil qilish jarayonida istak ma'nosining sodda, darak va to'ldiruvchi ergash gaplarda ifodalanishiga e'tibor bergan. U leksik-grammatik volyuntativ maydonni tashkil qiluvchi 18 ta modal fe'l va fe'l qurilmalarini taklif qilib, ular haqida umumiy nazariy tushuncha berib o'tgan. Ammo muallifning ishida

---

<sup>1</sup> Yakubov Jamoliddin Abduvaliyevich, filologiya fanlari doktori, professor O'zDJTU

istak ma'nosini sodda, qo'shma va ergash gapli qo'shma gaplar tarkibida ifodalanishining chuqur tahlil qilmaganligini kuzatamiz (Kordi 1988, 176-183).

Keyinchalik E. Kordi istak ma'nosini rus tili materialida istakni ifodalovchi sodda darak gaplar tarkibida ko'rib chiqqan. Muallif fikricha, rus tilida istakni anglatuvchi optativ gaplar quyidagi lisoniy birliklar bilan ifodalanadi: 1) istak maylida kelgan mustaqil sodda gaplar, 2) бы yuklamasi bilan kelgan infinitiv gaplar, 3) istak maylida kelgan sodda gaplarda бы yuklamasi bilan birga kelgan leksik birliklar, 4) бы yuklamasi bilan kelgan fe'lsiz gaplar (Kordi 1990, 174).

E. Kordi optativ gaplarning ichki xususiyatidan kelib chiqib, ularning quyidagi semantik tasnifini beradi: 1) xususiy istak, 2) buyruq ma'nosi bilan uyg'unlashgan istak, 3) o'tgan voqelikni ifodalovchi amalga oshmagan istak, 4) shart, maqsad, qiyos ma'nolari bilan birikib kelgan istak. Sodda gaplar tarkibiga optativ leksik maydonni tashkil qiluvchi желать, хотеть, хотеться modal fe'llarini kiritgan.

N.A. Kozintseva yuqoridagi fikrlarni rivojlantirib, istak ma'nosining istak maylida ifodalanishini arman tilida sodda darak va to'ldiruvchi ergash gaplar misolida tahlil qilgan. U sub'ekt amalga oshirishi mumkin bo'lgan ish-harakat to'g'risida o'z fikrini bildirib, istak munosabatini uch variantga ajratgan: 1) xususiy istak, 2) niyat, 3) urinish. (Kozintseva 1991, 87).

L. Chapayeva va M. Jo'rayevalar (Qarang: Chapayeva 2016, Jo'rayeva 2017) o'z tadqiqotida istakni keng ma'noda tushunadi. Ularning fikricha, har bir tilda ma'lum bir hodisani tasvirlash uchun juda ko'p sinonimlar mavjud deb hisoblaymiz. Chet tilini o'rganishning pragmatik maqsadlari uchun faqat istakni aniqlash mantiqiy xususiyatlari bilan chegaralanib qolmasdan, balki istak ot va uning sinonimlari, verbal va nominal konstruktsiyalari yordamida ifodalanishiga e'tiborni qaratish lozimligini ta'kidlaydi.

Tilshunos olimlarning istak ma'nosiga oid fikr-mulohazalaridan ma'lum bo'lishicha, ushbu semantik kategoriyani o'rganishga ular kamroq e'tibor bergan, istak kategoriyasining sodda va qo'shma gaplarning hamma turlarida qo'llanishini tahlil qilishmagan.

Istak, mumkinlik, zaruriyat mustaqil semantik kategoriyalardir. Har bir tilda tilning kategoriyalarni ifodalovchi turli murakkab vositalari mavjud bo'lib, semantik kategoriyalarni ifodalovchi lisoniy birliklar esa bir-biri bilan chambarchas bog'langandir. Aynan shu holat bir semantik kategoriyaning tilda turli vositalar bilan ifodalanishiga zamin yaratadi. Binobarin, ushbu kategoriyalarni ifodalovchi til vositalari ham turlicha bo'lishi mumkin.

Semantik kategoriyalarni sodda gaplarda qo'llanishini o'rganish hamda ularning fransuz va o'zbek tillarida qanday yo'llar bilan ifodalanishini aniqlash maqsadida fransuz tilida modal fe'llar bilan kelgan 381 misol to'plandi va ularning o'zbek tiliga o'girilgan tarjima variantlari tahlil qilib chiqildi. Ularni quyidagi semantik jadvalda ko'rishimiz mumkin.

Modal fe'llar yordamida Istak, mumkinlik va zaruriyat kategoriyalarining sodda gaplarda ifodalanishi

| №  | <i>Emploi du sens modal dans les propositions simples</i> | <i>TYPES DES MODALITÉS</i>          |                       |                                 |                            |                |
|----|---|-------------------------------------|-----------------------|---------------------------------|----------------------------|----------------|
|    |   | <i>Volonté/установка/хот ламоқ/</i> |                       | <i>Possibilité /мумкинлик//</i> | <i>Nécessité /зарурият</i> |                |
|    |   | <i>vouloir</i>                      | <i>avoir envie de</i> | <i>pouvoir</i>                  | <i>devoir</i>              | <i>falloir</i> |
| 1. | <i>Proposition énonciative Дарак gap</i>                  | 90<br>(64%)                         | 22<br>(100%)          | 85<br>(67%)                     | 46<br>(73%)                | 29<br>(100%)   |
| 2. | <i>Proposition interrogative Сўроқ gap</i>                | 45<br>(32%)                         | -<br>(0%)             | 35<br>(27%)                     | 14<br>(22%)                | -<br>(0%)      |
| 3. | <i>Proposition exclamative Ундов gap</i>                  | 5<br>(4%)                           | -<br>(0%)             | 7<br>(6%)                       | 3<br>(5%)                  | -<br>(0%)      |
|    |   | 140<br>(36%)                        | 22<br>(6%)            | 127<br>(33%)                    | 63<br>(17%)                | 29<br>(8%)     |
|    | <b>TOTAL</b>  |                                     |                       | <b>381</b>                      |                            |                |

Jadvaldan ko'rinadiki, istak, mumkinlik va zaruriyat kategoriyalari darak gaplarda ko'proq so'roq va undov (eksklamativ) gaplarda esa kamroq qo'llangan. Ushbu lingvistik-semantik tushunchalarning fransuz tilida sodda darak gapdagi grammatik strukturasi S Vm V inf shaklida bo'ladi. Bu sintaktik qurilma sodda darak gaplarda istak, mumkinlik va zaruriyat kategoriyalarini ifodalashda xizmat qiladigan sintaktik model hisoblanib, u yordamida sub'ektiv modallik amaldagi asosiy harakat sub'ekti bilan mos tushishi lingvistik va mantiq jihatdan aniqlab beriladi.

Bizning fikrimizcha, istak kategoriyasi oldindan biror ish-harakatni rejalashtiradigan va epistemik (gumon, taxmin) ma'nolarni ifodalamaydigan, odamning ichki kechinmalari va his-tuyg'ularini so'zlovchining tinglovchiga oldindan ma'lum bo'lgan amaldagi harakatni aks ettiruvchi istak ma'nosining bajarilish-bajarilmaslik xususiyatini maxsus lisoniy birliklar bilan ifodalovchi til ob'ektidir.

Biz yana shu faktni hisobga oldikki, istak kategoriyasini ifodalashning barcha vositalari eksplitsitlarga hamda implitsitlarga bo'linadilar. Eksplitsitlar deganda biz til birliklarining ikki xil tushinishga yo'l qo'ymaydigan (to'ppa-to'g'ri) ifodalangan ma'nosini tushunamiz. Implitsitlar yashirin ma'lumotni o'z ichiga oladilar, bu ma'lumot til birliklarining ma'nolari bilan ifodalana olmaydilar, balki mulohazaning konteksti va kichik matni bilan aniqlanadilar. Misol uchun, «Quelle chaleur!» (“Naqadar issiq!”) xitobi quyidagilarni ko'zda tutishi mumkin: derazani ochishga iltimosni; so'zlovchi nima uchun ustki kiyimini yechganini tushuntirishni; notanish kishi bilan aloqa o'rnatishga intilishni; salqin ichimlik ichish yaxshi bo'lishi mumkinligiga ishorani va h.k.

Tadqiqotning natijasida biz L. Chapayeva (2016) va M. Jo'rayevalarning (2017) fikriga qo'shilgan holda fransuz tilida istak kategoriyasi ifodalashning beshta leksik – semantik guruhga ajratdik. Istak kategoriyasini hosil qiluvchi lisoniy birliklar fransuz tilida 111 leksemalardan iborat ekanligi aniqlandi.

Birinchi guruhga biz, eng avvalo, stilistik jihatdan neytral bo'lgan vouloir (istamoq, xohlamoq, tilamoq, orzu qilmoq) modal fe'lini kiritamiz. Ye.E. Kordi uning uchta ma'nosini ajratib ko'rsatadi: niyat, maqsad, o'y, qasd, ahd, istak, tilak, orzu, xohish va urinish, urinib (sinab) ko'rish, harakat qilib ko'rish (Kordi 2004, 168). U ish-harakatning, holatning infinitivlari, fe'l-bog'lama bilan belgini bildiruvchi ot kategoriyasiga oid so'zlar bilan juftlikda qo'llaniladi, masalan: Je veux étudier (Men o'qishni xohlayman); Il veut être heureux (U baxtli bo'lishni xohlaydi). Bu konstruktsiyaning turlaridan biri ergash to'ldiruvchi bilan ifodalangan, kesimi Subjonctif da turgan to'ldiruvchi hisoblanadi, masalan: Elle veut qu'il revienne (U uning qaytib kelishini xohlaydi).

Vouloir fe'lini turli mayllarda, zamonlarda, shaxslarda va sonlarda, shaxssiz shaklda qo'llanilishi “istalganlik, tilanganlik, matlublik, ma'qullik, maqsadga muvofiqlik” kontseptiga qo'shimcha ma'nolar bag'ishlaydi. Misol uchun, Indicatif (darak mayli) o'tmishga, bugungi kunga yoki kelajakka tegishli bo'lgan istakni, xohishni bildiradi, masalan: Nous voulions partir (Biz jo'nab ketishni xohlagan edik), Vous voulez rester (Siz qolishni xohlayapsiz), Je voudrai rentrer (Men qaytib kelishni xohlayman); Conditionnel (shart mayli) – bo'lishi mumkin bo'lgan istaklar yoki ularning amalga oshirishining imkoni yo'qligidan afsuslanishni bildiradi, masalan: Je voudrais rester (Men qolishni xohlagandim); Subjonctif (istak mayli) istakni, xohishni, tilakni, orzuni va maylni, niyatni ifodalash uchun qo'llaniladi, masalan: Veuillez agréer mes félicitations les plus distinguées (Mening eng yaxshi tilaklarimni qabul qiling).

Leksik vositalarning ikkinchi guruhiga biz vouloir modal fe'lining sinonimlarini, optativ fe'li-otli otlarni va tavsifiy predikatlarni hosil qiluvchi ularning sintaktik derivatlarni kiritamiz. Ayrim misollarni keltiramiz: désirer (tilamoq, istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq), envier (tilamoq, istamoq, xohlamoq, orzu qilmoq, intilmoq, harakat qilmoq, tirishmoq, urinmoq), avoir envie de (istak, tilak, orzu, xohishga ega bo'lmoq), convoiter (astoydil (juda-juda) xohlamoq, ko'z olaytirmoq, hasad qilmoq, suqlanmoq), souhaiter (tilamoq, istamoq,

xohlamoq, orzu qilmoq, tilak bildirmoq), tenir à (qadrlamoq, e'zozlamoq, hurmat qilmoq, qadriga (qadr-qimmatiga) yetmoq, yuqori baholamoq, juda istamoq, xohlamoq, tilamoq, orzu qilmoq)(...)

Yuqorida sanab o'tilgan fe'llar ot bilan, fe'l bilan yoki ergash to'ldiruvchi bilan ifodalangan vositasiz yoki vositali to'ldiruvchiga ega bo'lishlari mumkin, masalan: Il demande un conseil (U maslahat so'rayapti); Il vous demande de rester (U sizning qolishingizni iltimos qilyapti); Il demande que vous soyez attentif (U sizdan e'tiborli bo'lishni talab qilyapti).

Aytish joizki, istakni ifodalashda shaxssiz oborotlar ham hosil bo'ladilar: il est désirable que + Subj. (istak, ma'qul, maqsadga muvofiq, kerak...); il est désirable de faire qch (nimadir qilish maqsadga muvofiq).

Uchinchi guruhni abstrakt otlar, yuqorida nomlari aytilgan fe'llarning derivatlari: désir, envie, jalousie, convoitise, entente, souhait, ambition, aspiration, espoir, prétention, rêve, exigence, nécessité, revendication, vœux, volupté, demande, sollicitation va boshqalar tashkil qiladilar. Asosiy ma'nolar istak, xohishning har xil turlarini ifodalovchi sinonimlar hisoblanadilar, masalan: intilish, kuchli orzu, niyat, ishtiyoq, zo'r istak, orzu, ishtiyoq, havas, kkchli his-tuyg'u, qizg'inlik, ehtiros, keraklik, zarurlik, zarurat, zaruriyat, hojat, ehtiyoj, umid, ishonch, talab, so'rov, talabnoma va b.

To'rtinchi guruhni gapda istak, xohishning agentlarini yoki uning ob'ektlarini bildiruvchi otlar, otlashgan sifatlar va sifatdoshlari ifodalaydilar: convoiteur (hasadchi (hasad qiluvchi) odam, g'ayir, ichi qora, baxil, ko'rolmaydigan, suq), amateur (xohlovchi, talabgor, ishqivoz, uch, havaskor, shinavanda), désiré (tilangan, istalgan, orzu qilingan, kutilgan, ko'ngildagi), avide (qattiq istovchi, orzumand, ishtiyoqmand, tashna, ochko'z, suq, mukkasidan ketgan, ishtiyoqmand, hirs qo'ygan), souffrant (qiynalayotgan, azoblanayotgan, azob-uqubat chekayotgan), favori (eng yaxshi ko'rilgan (hamma sevgan) odam, sevgili, arzanda), chouchou (erkatoy, arzanda), bien-aimé (sevikli, sevilgan, sevgan, muhabbat (mehr) qo'yilgan, ishqi tushgan, sevgili yor, mahbub, oshiq, eng yaxshi (xush) ko'rilgan, eng yoqtirgan (yoqadigan)), élu (saylangan (saylab qo'yilgan) kishi, sevgili, mahbub) bienvenu (tilangan, istalgan, orzu qilingan, kutilgan, ko'ngildagi), galant (shilqim, xotinboz), volontaire (ko'ngilli, xohlovchi, istovchi, talabgor, otilib chiqqan, orzumand, o'z ixtiyori bilan otilib chiqqan kishi), rêveur (orzu-xayollarga berilgan odam, xayolparast) va b.

Beshinchi guruhga biz ravishlarni va adverbial iboralarni kiritamiz: volontiers (jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan), de bonne (mauvaise) volonté (jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan/istar-istamas, uncha xohlamasdan, xohlamay), sans volonté (istar-istamas, uncha xohlamasdan, xohlamay), à volonté (qancha bo'lsa ham, istalgancha, xohlagancha, keragicha), volontairement (ixtiyoriy ravishda, o'z ixtiyori bilan, ko'ngilli bo'lib, otilib chiqib), avec plaisir (jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan), avec joie (xursandlik bilan, shodiyona, quvonib, sevinib), joyusement (xursand bo'lib, sevinib, quvonib, shodiyona), avec passion (zavq bilan, zo'r ixlos bilan, jon-jahd bilan, astoydil, ehtiros bilan), contre son gré (istakka, xohishga qarshi, istakka, xohishga qaramasdan), au gré de qn (xohishi, ixtiyori bilan) va b. Ular gapda ravish holi qisoblanadilar va istalganlik, tilanganlik, matlublik, ma'qullik, maqsadga muvofiqlik fe'llari bilan ifodalangan ish-harakatni emas, balki har qanday fe'li leksema bilan ifodalangan ish- harakatni ifodalaydilar: faire qch avec plaisir, volontiers, avec passion (biror narsani jon deb, bajonidil, mamnuniyat bilan, zavq bilan, zo'r ixlos bilan, jon-jahd bilan, astoydil, ehtiros bilan).

Fransuz tili leksik vositalarning keng ko'lamdagi nomenklaturasiga ega, ularning orasidan yadrodan FSMning periferiyasi tomon joylashgan beshta guruh ajratib olindi: 1) vouloir fe'li; 2) vouloir fe'lining sinonimlari; 3) istakni ifodalovchi abstrakt otlar; 4) istak, xohishni ifodalovchi otlar, otlashgan sifatlar va sifatdoshlari; 5) istak ma'nosini ifodalovchi sifatlar va ravishlar.

Misollar tahlili shuni ko'rsatdiki, fransuz tilida yuqoridagi lek-semantik guruhlarda istak kategoriyasi 111 ta lisoniy birliklar bilan ifodalanishi aniqlandi va ularni quyidagi semantik jadvalda ko'rsatish mumkin.



Ushbu taqsimot fransuz tilining struktur o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi, fransuz tili gapda fe'lning ko'p bo'lishi bilan xarakterlanadi. Aynan fe'l gapning markaziy qismi hisoblanadi va gapda barpo qiluvchi vazifani bajaradi. Istak kategoriyasi ifodalashning leksik vositalarning keng ko'lamda qo'llanishi so'zlovchiga o'z istaklarini, xohishlarini barcha nozik jihatlarini aniq ifodalash, uning suhbatdoshiga esa ularni tushunish imkonini beradi. Tadqiqotning natijalarini fransuz tilining amaliy kursini, nazariy grammatikani, tarjima amaliyotini o'qitishda qo'llash nazarda tutiladi.



Shunday qilib, istak xohishning turli-tuman semantikasini aks ettiruvchi lisoniy birliklar taqdim qilingan. Ular funktsional-semantik maydon ko'rinishida tuzilgan, bu maydonda markazdan periferiya tomon taqsimlanadigan ifodalashning eksplitsit va implitsit vositalari leksika, grammatika, so'z yasash, intonatsiya, kontekst va b. hozir bo'ladilar (ishtirok etadilar). Yadro markerlar va belgilarning maksimal soni bilan taqdim qilingan, periferiyada esa asosiy ma'noni to'ldiruvchi markerlari to'plangan.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

- [1]. Васильева Л. М. Семантика русского глагола. - М.: Высшая школа, 1981. - с.49.
- [2]. Жўраева М.М. Француз ва ўзбек эртақларида модаллик категориясининг лингвокогнитив, миллий-маданий хусусиятлари. -Филология фанлари доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. - Б. 133-142. Тошкент – 2017.
- [3]. Корди Е.Е. Конструкции с глаголом *rouvoir* в современном французском языке. – Категории глагола и структуры предложения. - Л.: Наука, 1990. - с.174.
- [4]. Корди Е.Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. – Ленинград. Наука, 1988.-с.176-183.
- [5]. Корди Е. Е. Модальные и каузативные глаголы в современном французском языке. М.: Издательство УРСС, 2004. 168 с.
- [6]. Козинцева Н. А. Временная локализованность действия и ее связи с аспектуальными, модальными и таксисными значениями. - Л.: Наука, 1991. - с.87.
- [7]. Чапаева Л.Г. Лексические средства выражения желательности во французском языке. Филологические науки. Вопросы теории и практики. Тамбов: Грамота, 2016. № 3(57): в 2-х ч. Ч. 1. С. 189-192. ISSN 1997-2911.